

VOKAL SAN'ATI VA UNING MUSIQADAGI O'RNI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

Elmuratova Gulnara – o'qituvchi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali "Vokal" kafedrası

Tayanch so'zlar: vokal san'ati, xor, orkestr, ovoz, nafas, musiqa, asar.

Ключевые слова: вокальное искусство, хор, оркестр, голос, дыхание, музыка, произведение.

Key words: vocal art, choir, orchestra, voice, breath, music, work.

Musiqa insoniyatning eng qadimiy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lib, u orqali insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati, milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini ifodalaydi. Musiqaning asosiy ifoda vositalaridan biri bu - vokal san'ati, ya'ni inson ovozi orqali kuylash san'atidir. Vokal - bu nafaqat musiqiy ijro vositasi, balki estetik tarbiya, emotsional rivojlanish va milliy madaniyatning muhim ko'rinishidir. Bugungi kunda vokal san'ati musiqa ta'limida, konsert faoliyatida va sahna ijodida muhim o'rin egallaydi. Musiqada vokal ijro so'z, til, hissiyot orqali tinglovchi bilan bevosita bo'g'lanish o'rnatadi. Vokal san'ati - bu inson ruhiyatining eng nozik iplarini chaluvchi betakror san'at turidir. U faqat musiqiy ijro emas, balki inson qalbining ifodasidir. Vokal san'atini rivojlantirish, yosh avlodni ushbu san'atga oshno etish - madaniyatimiz taraqqiyotining muhim bo'g'inidir. Bugungi kunda bu sohada nazariy bilim bilan birga, amaliy ko'nikmalarning uyg'unligi orqali chinakam san'at asarlarini yaratish imkoniyati mavjud. Shunday ekan, vokal san'ati doimo e'tiborda bo'lishi, zamon talablari asosida rivojlantirilishi lozim.

Vokal tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Yevropa vokali tarixiy jihatdan eng qadimiysi Italiya hisoblanadi. Italiyada dastlab vokal san'atining asosi diniy marosimlar bo'lgan, keyinchalik esa zamonaviy vokal san'ati ham Italiyada shakllangan. Shuning uchun ham, zamonaviy vokal tarixini umumiy tasnif etganimizda ro'yxatning boshini Italiya vokal maktabi egallaydi. Yevropa vokal san'atining shakllanishi va taraqqiyotida qadim italyan vokal maktabi asoschilari Petro Tozi, Jambattista Manchini, Jozeffo sarlino, Lyudoviko sakkoni, Julio Kachchini (XVIXVII asrlar) larning xizmatlari katta. Vokal san'atining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

Ovoz diapazoni – ovozning pastdan balandga yoki aksincha ijro etish imkoniyatlari.

Rezonans – ovozning tovush sifatiga ta'sir etuvchi rezonatorlar (og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i va boshqalar). *Diktsiya va artikulyatsiya* – nutqning ravshanligi va to'g'ri talaffuz qilish.

Nafas olish texnikasi – to'g'ri nafas olish orqali ovoz barqarorligini ta'minlash. Vokal ijroda klassik vokal (opera, romans, akademik qo'shiq) va estrada, xalq qo'shiqlari kabi turli yo'nalishlar mavjud bo'lib, har birining o'ziga xos texnikasi va uslubi bor.

Bugungi kunda texnologiya rivoji vokal san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Kompyuter dasturlari yordamida vokal tahlili, ovoz yozish va tahrirlash imkoniyatlari kengaydi. Shu bilan birga, onlayn ta'lim platformalari orqali vokal darslari global miqyosda olib borilmoqda. Ammo, har qancha texnik vosita bo'lmasin, inson ovozi jonli, tabiiy va hissiyotga boy ohangi har doim o'zgacha qadriyat bo'lib qoladi.

Vokal ijrochiligida vokal eshitish muhim o'rin tutadi. Vokal eshitish orqali kuy musiqani, notalarni to'g'ri eshitib, anglay olish qobiliyatiga ega bo'lish talab etiladi. Vokal eshitish asta-sekin, vokal texnikasini egallagan sari rivojlanadi. Buning zamirida esa tinimsiz mehnat, o'z ustida muntazam izlanish yotadi. Eshitish va ovoz o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama bo'ladi. Eshitish ishtirokisiz ovoz shakllanmasligi bilan bir qatorda, eshitish ham ovoz a'zolari ishtirokisiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Ovoz organlari faoliyati orqali eshitish idroki hosil bo'ladi. Nutq, musiqa bir-ikki qo'shiqni eshitish orqali ularni ichimizda bir necha ovoz chiqarib, takrorlaymiz, shundan keyingina ularni idrok etamiz.

"Vokal jarangi ifodaliligi, tovush sifati vokal - texnik ko'nikmalar: nafasni rezonatorlar ishi, talaffuz apparatini egallashga bog'liq. Biroq texnik ko'nikmalarni shakllantirish emotsional yo'nalish va badiiy ifodalilik bilan birga olib borilishi lozim [1].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, mustaqilikka erishilgandan so'ng unitilib borayotgan milliy qadriyatlarimiz, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizga alohida e'tibor berila boshlandi. Shu bilan bir qatorda milliy san'atimizga bo'lgan e'tibor ham kuchaydi. Milliy musiqamiz asrlar osha avlodlardan-avlodlarga o'tib sayqallashib, rivojlanib kelmoqda. Yosh va barkamol avlodni milliy ruhda tarbiyalashda va umuminsoniy qadriyatlarimizni asrab-avaylab kelajak

avlodlarga ham qoldirishda milliy musiqamiz va san'atimizning o'rnini nihoyatda beqiyos. Shunday ekan, milliy mumtoz qo'shiqchilik san'atiga ham boshqa san'at turlari singari e'tibor kuchaytirildi va bu borada imkoniyatlar kengaytirildi. Ayniqsa, hozirgi davrga kelib, yoshlar o'rtasida vokal san'atida mumtoz maqom ijrochiligi bilan birga zamonaviy qo'shiqchilik san'atiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Yangi usullarda yoshlar ijod qilib, qo'shiqchilik san'atining rivojiga o'z

hissalarini qo'shmoqda. Bu san'at sirlarini puhta egallashga harakat qilmoqda. Vokal san'atida, uning ijrochiligida qo'shiqchining ovozi to'g'ri shakllantirish, to'g'ri yo'naltirish asosiy maqsad hisoblanadi. Vokal ijrochiligida eshitish, ovozni yo'lga qo'yish, nafas organlarini o'z maromida ishlatish kabi vokal qoidalari muhim ahamiyatga egadir. Buni esa har bir vokalist bo'laman degan talaba bilishi va unga to'liq amal qilishi talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Qahhorov. Vokal asoslari. Toshkent, 2008 y.
2. Nafisa Nasretdinova. Buxoro ixtisoslashgan san'at maktabi o'quvchilariga vokal qo'shiqchiligini o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar va usullar. Science and Education, 2025, 6(3), 443–449.
2. Sadoqat Samatovna Ashurova. Vokal ijrochiligida ovoz xususiyatlari, ta'limda zamonaviy yondashuvlar. Science and Education, 2024, 5(11), 164–169.
3. Qahramon Madaminovich Fozilov. "Vokal ijrochiligida ovoz usullari". 2023, 496-497.
4. Erkin Rahimov. Vokal xonandasi ish faoliyati jarayonida ovoz sozlash mashqlari ustida ishlash. Oriental Art and Culture, 2024, 5(5).
5. "Vokal san'ati: inson ovozi shakllanish va rivojlanish yo'li". Oriental Art and Culture, 2025, Vol.6 No.1.
6. "Musiqada o'quvchilar ovozi tarbiyalashda vokal san'atining yangi texnologiyalar asosida o'rgatishning ahamiyati." Omonov X., Журнал музыки и искусства, 2022, 3(1).
7. Bobirshox G. Nurullayev. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Science and Education, 2025, 6(4), 88–95.

REZYUME. Ushbu maqolada vokal san'atining nazariy asoslari, texnik komponentlari va musiqa san'atidagi amaliy o'rni tadqiq etiladi. Vokal ijro texnikasi - nafas olish, rezonatorlardan foydalanish, artikulyatsiya, intonatsiya va timbr kabi elementlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bundan tashqari, vokal san'ati ta'limining metodikasi, zamonaviy texnologiyalarning ovozi shakllantirishdagi roli hamda amaliy misollar yordamida ovoz tarbiyalashning samaraliroq usullari ko'rib chiqiladi. Maqola natijalarida vokal san'ati musiqa madaniyatini boyitish, ijrochilik mahoratini oshirish va ta'lim jarayonlarida yangicha yondashuvlarning ahamiyati ta'kidlanadi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье исследуются теоретические основы вокального искусства, его технические компоненты и практическая роль в музыкальном искусстве. Теоретически анализируются такие элементы вокальной техники, как дыхание, использование резонаторов, артикуляция, интонация и тембр. Кроме того, рассматриваются методика обучения вокальному искусству, роль современных технологий в формировании голоса и более эффективные методы воспитания голоса на практических примерах. В статье подчеркивается важность новых подходов в вокальном искусстве, обогащении музыкальной культуры, совершенствовании исполнительского мастерства и образовательных процессах.

SUMMARY. This article explores the theoretical foundations of vocal art, its technical components, and its practical role in musical art. Such elements of vocal technique as breathing, using resonators, articulation, intonation, and timbre are theoretically analyzed. In addition, the methodology of teaching vocal art, the role of modern technologies in voice formation, and more effective methods of voice education are discussed on practical examples. The article emphasizes the importance of new approaches in vocal art, enriching musical culture, improving performance skills, and educational processes.